

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10144599>

M.Norinov

o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali,

O.Yusufjonova

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi

4-bosqich talabasi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: *Talabalarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariy asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsad-ga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.*

Maqolada o'zbek tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, metodika, lingvistika, zamonaviy yondashuv, modernizatsiya, ta'lim samaradorligi, metodika, tamoyil, ta'lim samaradorligi, nutq madaniyati.*

Аннотация: *исходя из задачи обучения учащихся родному языку, его воспитания и всестороннего развития, теоретически обосновывая познание, опираясь на рекомендации всех смежных, взаимосвязанных дисциплин, методика обучения родному языку разрабатывает свои принципы. Эти принципы отличаются от общедидактических и определяют направления воспитательного труда между учителем и учеником. Принципы методики, как и принципы дидактики, способствуют установлению целенаправленной деятельности учителя и ученика, выбору благоприятного направления в их совместной работе, служат одним из элементов теоретического обоснования методики как науки.*

В СТАТЬЕ НАУЧНО ИССЛЕДОВАНЫ СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Ключевые слова: *инновация, методика, Лингвистика, современный подход, модернизация, образовательная эффективность, методика, принцип, образовательная эффективность, культура речи.*

Abstract: *based on the task of teaching students the native language, its upbringing and comprehensive development, theoretically justifying cognition, based on the recommendations of all related, interrelated disciplines, the methodology of teaching the native language develops its principles. These principles differ from the general didactic ones and determine the directions of educational work between the teacher and the student. The principles of the methodology, as well as the principles of didactics, contribute to the establishment of purposeful activity of the teacher and student, the choice of a favorable direction in their joint work, serve as one of the elements of the theoretical justification of the methodology as a science.*

The article: *scientifically examines modern approaches to teaching the Uzbek language.*

Keywords: *innovation, methodology, linguistics, modern approach, modernization, educational efficiency, methodology, principle, educational efficiency, speech culture.*

KIRISH

Zamonaviy didaktik tamoyillar barcha ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari uchun talablariga mos bo'lgan: mantiq, maqsad va maqsadlari o'qitish, uning mazmuni, shakllari va tanlash usullari, natijalarini tahlil qilish va istagi shakllantirish, ularni erishish uchun. Shunday qilib, tartibi, tashkilot va ta'lim mazmuniga uchun tizim talablariga aniqlash va o'qitish tamoyillari asosiy qoidalari. Bu fikr, me'yoriy talablar, tashkil etish va ta'lim o'tkazish jarayonida ta'qib qilinadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilish kun sayin kuchayib bormoqda. Bizga yaxshi ma'lumki, metod o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish usuli sanaladi. "Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda"[1, 6].

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Innovatsion texnologiyalarni boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida joriy etishning eng ahamiyatli jihatlaridan biri - bu o'quvchilarning o'z fikr va g'oyalarini bayon qilishga yonaltirilgan harakatlarning rag'batlantirilib borilishidir. Masalan, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida aniq fan bo'lganligi uchun o'qituvchilarda fikr va g'oyalar muamoli vaziyatlar orqali turmushda uchraydigan muommoli holatlar va undan chiqib ketishning maqbul yo'llarini topishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kundalik hayotdagi istimoliy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinishi tarzda yoritish asosida vujudga keltirilgan muomolarni hamkorlikda, ro'lli o'yinlar orqali hal etishi mumkin.

Bunday syujetli- ro'li o'yinlarni jamiyat yoki tabiatga bog'liq darslikdagi maqsadlardan va mashqlardan oladi. Ayniqsa, ona tili darslarida mashqlar va matnlar bilan ishlashda o'quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishida ijodiy o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion texnologiya talim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy ma'sul shaxs hisoblanadi, chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq, tushunarli tarzda yetkazib berishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayoniga yangicha yondashuv asosida o'qitishning yangidan-yangi usullari qo'llanishni boshladi. Ulardan biri o'quvchilarni faol fikrlashga o'rgatishdir. Bu qiyin ish emas albatta, buning uchun darslarda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishi muhim hisoblanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalaridan biri "Interfaol texnologiyalar" juda yaxshi samara beradi.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetentsiyaviy yondoshuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi.

"Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlarni etkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar"[2, 36].

Jahon tajribasida tillarni o'rganishda quyidagi tamoyillardan foydalanib kelinadi:

1. Aspektlar tamoyili.
2. Struktura tamoyili.
3. Aspektli struktura tamoyili.
4. Transformatsiya tamoyili.
5. Funktsional tuzilish tamoyili.
6. Ideografik grammatika yo'nalishi.
7. Kommunikativ tamoyil.

Keyingi yillarda respublikamizda o'zbek tilini o'qitishda quyidagi tamoyillar yoki yondashuvlardan foydalanilmoqda:

1. Lingvistik yoki an'anaviy tizimli yondashuv. Ushbu yondashuvda til ta'limi aspektli tamoyil yo'nalishida, ya'ni ta'lim mazmunini tizimli ketma-ketlikda taqsimlash yo'nalishida beriladi va, asosan, filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida qo'llanadi. Bunda o'zbek tili sathlar izchilligida o'qitiladi va bu tilni nazariy jihatdan chuqur o'rganish, o'zbek tilining leksik-semantik va grammatik imkoniyatlari bilan to'liq tanishish imkonini beradi. Shu bois

filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitish. O'tgan asrning 80-yillarida G'arb lingvodidaktikasida "ma'lum maqsad uchun qo'llaniladigan til" tushunchasi paydo bo'ldi. Ushbu tushuncha zaminida inson faoliyatining ma'lum bir sohasida qo'llaniladigan til birliklarining ixtisoslikka oid leksik-grammatik va boshqa o'ziga xos belgilari (u yoki bu ixtisoslik doirasida nutqiy muloqot qanday tuziladi, ma'lum turdagi axborotni yetkazish uchun muloqot qaysi shaklda olib boriladi kabi) yotgani uchun "mutaxassislik tili" deb ham yuritiladi. Ushbu yondashuvda turli kasb-hunarga oid matnlar ustida ishlash, kasbiy atamalarning nutqda qo'llanishini o'rgatish vositasida o'quvchi-talabalar kasbiy, ixtisosiy nutqqa o'rgatiladi, kasbiy nutqqa oid lug'at boyligi o'stirib boriladi.

3. Funktsional-kommunikativ yondashuv. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida keng qo'llanayotgan mazkur yondashuvda tilni amaliy maqsadda o'qitish, ya'ni o'quvchilarni biron-bir mavzuda fikr almashish va fikr bayon qilishga o'rgatish maqsad qilib qo'yiladi. O'quvchilarda, avvalo, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ushbu tamoyilni funktsional aspektida o'qitish deb ham ataydilar.

Ta'lim jarayonida o'qitish metodlari markaziy o'rin egallaydi. Ta'lim shakli, vositalari, metodlari sinfdan sinfga, bosqichdan bosqichga o'tgan sari oddiydan murakkabga qarab o'stirib borilgan holda qo'llanilishi kerak. Chunonchi, ta'limning quyi bosqichlarida ko'proq rasmlar, narsa-buyumlarning o'zidan foydalanilsa, o'rta va yuqori sinflarda turli jadvallar, chizmalardan, video va video lavhalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, o'rta muxsus va oliy ta'limda esa ta'lim jarayonida kodoskop, slayd, kompyuter, internet kabi zamonaviy axborot vositalarini yanada kengroq qo'llash tavsiya etiladi[3, 45].

Dars jarayonida bir emas, bir necha metodlardan foydalanish mumkin, ushbu metodlarning to'g'ri qo'llanishi mashg'ulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, o'quvchi-talabalarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning faoliyati fikrlarining o'zgarib, almashinib turishi, albatta, dars metodlarining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Bu pirovard natijada har bir darsning boshqalariga o'xshamagan shaklda, o'ziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va o'quvchi-talabalarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg'ab olishga intilish hissini uyg'otishga olib keladi.

XULOSA

Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalligi shundaki:

- ta'limda ko'rgazmalilik eng birinchi o'rinlarda turadi;
- o'quvchini izlanishga undaydi;
- o'quvchi ta'lim jarayonini bir vaqtning ozida ko'radi, eshitadi, o'quvchilarga kengroq keng qamrovdagi katta hajimli materiallar tezroq yetkazib beradi;
- o'quvchi tafakkurini shakllantradi;
- o'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi;
- mashg'ulotlarni jonli va ijodiy tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi;

- ta'lim mazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni xohlagan vaqtda o'quvchiga taqdim etadi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashi joizki, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolliklarini olishlariga, ularning mashg'ulotlarni diqqat bilan tinglab, o'quv materialini tahlil qilib, taqqoslash, xulosalar chiqarish kabi aqliy faoliyatining rivojlanishiga innovatsion texnologiyalar katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. M.E.Jumayev. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha O'UM(II QISM). Toshkent, 2018.
2. N.G.Komilova. Pedagogik imidj va kompetentlik moduli bo'yicha O'UM. Toshkent, 2017.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent, 2008.
4. Yusupova Sh. Integratsiyali darslar tashkil qilish metodikasi. Andijon, 2008.
5. X.S.Muxitdinova. "O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" moduli bo'yicha O'UM. Toshkent, 2016.
6. Yusupova Sh. O'zbek tili o'qitish metodikasi (amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma). Toshkent, 2012.
7. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2006.
8. Norinov, M. U. (2023). MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITISHNING TEXNIKA VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 20, 199-207.
9. yunus Norinov, M. (2023). Bo'lajak Texnik Mutaxasislarni Kasbiy Kompetensiyasini Multimediya Vositalari Asosida Rivojlantirish. Молодые ученые, 2(11), 39-41.
10. Norinov, M., Ergashev, A., & Normatov, E. (2023). MASOFAVIY O'QITISH MODELLARI VA UNING SAMARALI JIHATLARI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 19.
11. Mukhammadyunus, N., & Akhrorbek, E. (2023). ASPECTS OF THE FORMATION OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 16, 192-197.
12. Karimov, S. S., & Norinov, M. U. INFORMATION ON THE REDUCTION OF THE TELECOMMUNICATION SYSTEM. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 288.
13. Karimov, U., & Kasimov, I. (2018). The importance of modern information technologies in development of distance education.
14. Норинов, М. У., Бекназарова, С. С., & Жаумытбаева, М. К. (2019). Вейвлет-преобразования в процессе обработки телевизионных изображений. Научные разработки: евразийский регион, 143.

15. Karimov, U., & Abduraimjonov, A. (2017). Innovative information technology in education. Форум молодых ученых, (5 (9)), 9-12.
16. Ташманов, Е. Б., & Норинов, М. У. (2018). МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ. Теория и практика современной науки, (10), 394-401.
17. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). Илм-Фан Ва Таълим Соҳасидаги Ахборотлашув. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 103-110.
18. Каримов, У., Хакимова, Д., & Халилов, Л. (2018). Информационное И Коммуникационное Технологии Влияние На Образование В Техническом Обслуживание. Мирская наука, (10 (19)), 193-197.
19. Teshaboev, M., Karimov, U., & Karimova, G. (2023). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF APPLIED PHILOSOPHY. Oriental Journal of Social Sciences, 3(05), 69-80.
20. Nosirov, K., Norinov, M., & Abdukadirov, B. (2019, November). Image Filtering Algorithm Based On The Analysis Of The Main Components. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE.
21. Gulnoza, K. (2023). MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 444-448.
22. Karimova, G. (2018). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS WITH THE INTERACTIVE METHODOLOGICAL COMPLEX. Теория и практика современной науки, (2 (32)), 3-5.
23. Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). KADRLAR TAYYORLASHDA KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. "Science Shine" International Scientific Journal, 9(1). извлечено от <http://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/146>
24. Norinov, M. Y. (2023). Formation of Professional Competences of Future Programmers through Information and Communication Technologies. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 137-142.
25. Norinov, M., Ergashev, A., & Normatov, E. (2023). MASOFAVIY TA'LIMDA QIDIRUV TIZIMLARI. Gospodarka i Innowacje., 40, 119-125.
26. Karimova, G. (2023, June). STRATEGIC OBJECTIVES OF PERSONNEL TRAINING POLICY OF THE SOVIET AUTHORITY. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 5, pp. 53-57).
27. Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JIHATLARI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(28). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1042>

28. Norinov, M. U., Abdukodirov, B. A., Tillavoldiev, A. O., & Urinov, N. T. (2019). Алгоритм устранения шума кусочно-гладкой моделью изображения. *Theoretical & Applied Science*, (4), 509-512.

29. Norinov, M. U., Abdukodirov, B. A., Tillavoldiev, A. O., & Urinov, N. T. (2019). Algorithm for eliminating noise by a smooth-smooth image model. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 4(72), 509-512.

30. Qodirov, X., Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). O'ZBEK JADID MUTAFAKKIRI ABDULLA AVLONIYNING INSON VA TABIAT MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI. *Research and Implementation*, 1(6), 40–44. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/990>

31. Qodirov, X., Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLASHUV XUSUSIYATLARI. *Research and Implementation*, 1(6), 45–50. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/991>